




Jarqo'rg'onda xotin-qizlar bandligi va turizm loyihalari bilan tanishildi






Bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov haftalik ish rejasiga muvofiq turizm, madaniy meros, madaniyat va ommaviy kommunikatsiyalar hamda xotin-qizlar bandligi yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida hududlarga tashrifini Jarqo'rg'on tumanidan boshladi.

Dastlab, tumanning "Qorabura" mahallasida Prezidentimizning "Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan tadbirdor Malika Jumayeva tomonidan tashkil etilgan qandolatchilik sexi faoliyati bilan tanishildi. Kasanachilikni rivojlantirish uchun yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlardan samarali foydalangan holda bu kabi loyihalarni ko'paytirish, xotin-qizlar uchun yangi ish o'rnlari yaratish lozimligi ta'kidlandi.















Shuningdek, mahalla guzarida xotin-qizlar uchun tashkil etilgan sport zal, hunarmandchilik markazi hamda xizmat ko'rsatish nuqtalari faoliyati bilan ham tanishilib, mahallaning Xotin-qizlar faoli faoliyati e'tirof etildi. Uning tajribasini ommalashtirish hamda sport zal sharoitlarini yaxshilash yuzasidan mas'ullarga topshiriqlar berildi. Mahallada infratuzilmani yaxshilash ishlari ham ko'zdan kechirilib, mutasaddilarga yo'llarni asfaltlash vazifasi topshirildi.















Shundan so'ng, tuman Adliya bo'limida tashkil etilgan "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash" markazi faoliyati bilan tanishildi. Markaz faoliyatini takomillashtirish, malakali trenerlar, hayot tajribasiga ega faol nuroniylarni jalb qilgan holda yoshlarni katta hayot tayyorlash lozimligi qayd etildi.









Tumanga tashrif yakunida viloyat rahbari "Yoshlar va turizm" ko'chasini tashkil etish ishlari bilan tanishdi. Shuningdek, shu yerning o'zida mutasaddilar 7 ta tumanda "Yoshlar va turizm" ko'chasini tashkil etish yuzasidan bajarilgan ishlar va kelgusidagi natijalar yuzasidan axborot berdi. Ushbu hududlarda tashkil etilayotgan 7 ta ko'chada jami qiymati 39,3 mlrd so'm bo'lgan 272 ta xizmat ko'rsatish obyektlari ishga tushiriladi hamda 1 360 ta yangi ish o'rirlari yaratiladi.

Viloyat rahbari ko'chalarni belgilangan namunaviy loyihalar asosida, barcha infratuzilmalarni hisobga olgan holda tashkil etish, ishlarni sifatli yakunlab, foydalanishga topshirish topshirig'ini berdi.